

So'zlarni bo'g'inlarga bo'lish





Oilam

Oila desam, biri tan,
 Biri jondek ko'rinar.
 Mo'jazgina mustahkam
 Bir vatandek ko'rinar.
 Oila – otam, oila – onam,
 Oila – ukam ko'zlari.
 Oila – singlim, oila – bobom,
 Buvijonim so'zlari.
 Men ulardan o'zimni
 Tasavvur etmam ayro.
 Oila – kichik vatanim,
 Men jilg'aman, u – daryo.




Zahro Hasanova

Alifbe qahramonlari bilan tanishuv

**Aziza**

Mening ismim Akmal.
Men atrofimizdagi olamni
o'rganishga qiziqaman.

Akmal

Mening ismim Aziza.
Men matematika va
sportni yaxshi ko'raman.

Madina

Biz Akmal bilan egizaklarmiz.
Men qiziquvchan va quvnoq
Madinaman.

Jasur

Men esa Jasurman. Men
musiqa cholg'u asboblari
chalishni bilaman.

